

1920-1950-YILLARDA FARG‘ONA SHAHRIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR

Ulug‘bek Umarovich MANSUROV

dotsent

tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

University of Business and Science

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada 1920–1950-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysida sog‘liqni saqlash tizimining shakllanishi, uning muammolari va rivojlanish yo‘llari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Dastlabki yillarda mavjud bo‘lgan sanitariya va tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi yetishmovchiliklar, kadrlar tanqisligi, yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligi yoritilgan. Shuningdek, 1930-yillardan boshlab sog‘liqni saqlash infratuzilmasining bosqichma-bosqich takomillashgani, Ikkinchi jahon urushi yillarida gospitallar tashkil etilishi va tibbiy xizmatning harbiy ehtiyojlarga yo‘naltirilgani haqida ma’lumot berilgan.

Tayanch so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, sog‘liqni saqlash, yuqumli kasalliklar, shifoxonalar, tibbiy kadrlar, Ikkinchi jahon urushi, sanitariya-profilaktika, tarixiy jarayon, sovet davri, gospital.

ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В ГОРОДЕ ФЕРГАНА В 1920-1950 ГОДАХ

Улугбек Умарович МАНСУРОВ

Доцент

Доктор философии по (PhD) историческим наукам

University of Business and Science

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье на основе исторических источников анализируется формирование системы здравоохранения в Ферганской долине в период с 1920 по 1950 годы, её проблемы и пути развития. Освещаются недостатки санитарного и медицинского обслуживания в первые годы, дефицит кадров, широкое распространение инфекционных заболеваний. Кроме того, рассматривается постепенное совершенствование инфраструктуры здравоохранения с 1930-х годов, организация госпиталей в годы Второй мировой войны и ориентированность медицинского обслуживания на военные нужды.

Ключевые слова: Ферганская долина, здравоохранение, инфекционные заболевания, больницы, медицинские кадры, Вторая мировая война, санитарно-профилактические мероприятия, исторический процесс, советский период, госпиталь.

XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi aholisi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yashar, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati esa nihoyatda cheklangan edi.

Aholining keng qatlamlari orasida sanitariya-gigiyena madaniyatining pastligi, yuqumli kasalliklarning tez-tez avj olishi va tibbiy kadrlar tanqisligi sog'liqni saqlash tizimining jiddiy muammolaridan biri bo'lib qolgan edi. Ayniqsa, sobiq sovet hokimiyatining ilk yillarida mavjud davolash muassasalari sonining ozligi, mavjud shifoxonalarning moddiy-texnik bazasining zaifligi, aholining kambag'alligi va ta'lim darajasining pastligi kasalliklarning keng yoyilishiga zamin yaratdi.

Sovet hokimiyatining ilk yillarida yuzaga kelgan murakkab harbiy-siyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida Farg'ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy muammolar keskin tus oldi. Iqtisodiy inqiroz va beqarorlik oqibatida aholining sanitariya-gigiyena holati yomonlashdi, sog'lom turmush tarzi, tibbiy madaniyatni shakllantirish va yuqumli kasalliklarning oldini olish borasidagi chora-tadbirlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmadi. Aholining turmush darajasi pastligi hamda malakali tibbiyot xodimlarining yetishmasligi tufayli turli kasalliklar keng tarqalgan edi.

1917-yilga kelib, butun O'zbekiston hududida atigi 128 nafar shifokor faoliyat yuritgan bo'lib, Farg'ona viloyatida har 50 ming kishiga bir nafar shifokor to'g'ri kelgan [1;15]. Bu esa aholi salomatligini ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqargan. Tibbiyot muassasalari va mutaxassislar taqchilligi mustamlakachilik siyosatining merosidir.

1918-yilda Skobelev shahrida 60 o'rinli ayollar va bolalar kasalxonasi ish boshlagan, Eski Marg'ilon hududida esa mahalliy ayollar va bolalar uchun 10 o'rinli kichik kasalxona faoliyat yuritgan [2;165. 1920-yilga kelib, Skobelev shahrining eski qismida ayollar uchun kichik hajmdagi kasalxona mavjud bo'lgan. Shuningdek, shu yili shaharda tug'ruqxona va yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun "Kapli moloka" bo'limini tashkil etish rejalashtirilgan edi, biroq mos bino topilmagani tufayli bu loyiha amalga oshmay qolgan [3; 22].

1918-yilda, boshqa viloyatlar qatori, Farg'ona viloyatida ham sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etilgan [4; 55–56]. Bu bo'limlar zimmasiga hududlarda tibbiy xizmat tizimini yo'lga qo'yish, yuqumli kasalliklarning oldini olish,

epidemiya holatlariga qarshi kurashish, shuningdek ona va bola salomatligini muhofaza qilish singari muhim vazifalar yuklatilgan edi. Xususan, 1918-yil noyabr oyida Andijon-O'sh uyezd-shahar sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etiladi [5; 74].

Siyosiy va iqtisodiy beqarorliklarga qaramay, bu davrda Rossiyadan Farg'ona vodiysi shaharlariga bir qator malakali shifokorlar yuborildi. Jumladan, Andijon-O'sh sog'liqni saqlash bo'limining birinchi mudiri V. F. Shmidt bo'lgan. Shuningdek, I. B. Vovrijin, V. Yu. Voyevodskiy, K. P. Olifing, M. S. Ernest, N. A. Kinze, M. S. Goloshevskaya, N. Ya. Vasilevskiy, V. V. Kashurnikov kabi shifokorlar Andijon shahriga kelib, keyinchalik Farg'ona vodiysining turli hududlarida aholi salomatligini tiklash va tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish ishlariga jalb etilganlar [6;74].

1923-yilda Farg'ona shahridagi kasalxona 40 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ulardan 20 tasi yuqumli kasalliklarga, qolgan 20 tasi esa boshqa turdagi kasalliklarga chalingan bemorlar uchun ajratilgan edi. Shahar kasalxonasida jami 34 nafar tibbiy xodim faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular orasida 2 nafar shifokor, 2 nafar doya va 25 nafar yordamchi tibbiyot xodimi mavjud edi [7;42]. Kasalxonada har kuni o'rtacha 40 nafar bemor stasionar tarzda davolangan. Shuningdek, kasalxona tarkibida ambulatoriya hamda stomatologik xizmat ko'rsatuvchi kabinet mavjud bo'lib, ularda har kuni 30–40 nafar bemorga ambulator tarzda xizmat ko'rsatilgan.

Biroq bu yillarda tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va moddiy-texnik ta'minot darajasi qoniqarsiz holatda edi. Kasalxonada bemorlar uchun zarur bo'lgan dori-darmon, gigiyenik vositalar, ko'rpa-to'shaklar yetishmagan, ovqatlar esa umumiy qozonda tayyorlanar edi. Binoning o'zi ham ta'mirtalab holatda bo'lib, isitish tizimi ishlamas, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti izdan chiqqan holatda edi. Viloyat sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan ajratilgan mablag'lar esa ehtiyojlarni qoplashga yetarli emas edi.

1925-yilda Farg'ona shahrida 30 o'rinli bitta shifoxona, sug'urtalangan fuqarolar uchun mo'ljallangan ambulatoriya, bitta umumiy shahar ambulatoriyasi va ipakchilik fabrikasi huzurida yana bir ambulatoriya faoliyat ko'rsatgan. 1929-

yilga kelib shaharda tibbiy muassasalar soni 24 taga yetgan [8; 239]. Shu yillarda 30 o‘rinli shifoxona kengaytirilib, 75 nafar bemorga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratilgan.

1923-yilda butun Farg‘ona viloyati shaharlari bo‘ylab 512 o‘ringa mo‘ljallangan 12 ta kasalxona, 142 o‘ringa ega 7 ta uchastka kasalxonasi, 11 ta ambulatoriya, 1 ta shifokor ambulatoriya punkti, 14 ta feldsherlik punktlari hamda 1 ta tez tibbiy yordam punkti aholiga xizmat ko‘rsatgan [9; 38].

Marg‘ilon shahridagi asosiy kasalxona 15 o‘rinli bo‘lib, alohida bo‘limlarga ajratilmagan bo‘lsa-da, ularning 5 tasi ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan edi [10; 380]. Shahar aholisi soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, faqatgina bitta shifokor xizmat ko‘rsatgan. 1923-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida har 79 011 nafar aholiga atigi bitta shifokor to‘g‘ri kelgan. Eski Marg‘ilon shahrida esa 25 o‘rinli kasalxona, 30 o‘rinli bolalar uyi hamda shahar ambulatoriyasi faoliyat ko‘rsatgan.

1922-yilga kelib, butun Turkiston o‘lkasida sog‘liqni saqlash sohasi og‘ir inqiroz holatiga yuz tutgan edi. Faqat bir yil ichida sog‘liqni saqlash komissarligining ma‘muriy organlari soni 726 tadan 222 taga, yirik va kichik kasalxonalar 188 tadan 139 taga, ambulatoriyalar esa 237 tadan 33 taga qisqargan [11; 170–173]. Tibbiyot xodimlarining yetishmovchiligi, yashash va mehnat sharoitining og‘irligi oqibatida aholining sanitariya-gigiyenik holati izdan chiqqan, vabo, bezgak, traxoma, moxov kabi yuqumli va surunkali kasalliklar keng tarqalgan. Ko‘plab chekka hududlarda esa aholi umuman tibbiy xizmatdan bebahra qolgan.

1922-yilda Farg‘ona viloyati sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, viloyatda yuqumli kasalliklar keskin ravishda ko‘payib ketgan edi. Ushbu holatga qarshi choralar ko‘rish maqsadida Skobelev (hozirgi Farg‘ona), Namangan va O‘sh shaharlarida yuqumli kasalliklarning oldini olish bo‘yicha maxsus komissiyalar tuzildi. Qo‘qon shahrida 300 o‘rinli, Skobelevda 100 o‘rinli, Andijonda 40 o‘rinli, Namanganda 30 o‘rinli va O‘shda 25 o‘rinli yuqumli kasalliklarga ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etildi [12; 22].

Farg‘ona vodiysi aholisi orasida sanitariya-ma’rifat ishlari, profilaktik choratadbirlar hamda davolash xizmatlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan edi. Aholining yashash sharoitlaridagi og‘irlik, sog‘liqni saqlashdagi moddiy va tashkiliy muammolar sababli yuqumli kasalliklarning tarqalishi yanada kuchaydi. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, 1929-yilda viloyatda 334 ta oila tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilganda, ularning 194 tasida yuqumli kasallik aniqlangan [13; 2]. Aholi orasida kasalliklar keng tarqalgani holda, bu sohaga ajratilgan davolash o‘rinlari soni nihoyatda kam edi. Masalan, 1928-yilda butun respublika bo‘yicha yuqumli kasalliklar uchun 320 ta o‘rin ajratilgan bo‘lsa, ulardan atigi 33 tasi Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelgan, xolos [14; 113].

Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri – malakali tibbiyot kadrlarining yetishmasligi edi. 1927-yilda butun respublikada 935 nafar tibbiyot xodimi faoliyat yuritgan bo‘lib, shaharlarda har bir shifokorga o‘rtacha 1 263 nafar, qishloqlarda esa 33 597 nafar aholi to‘g‘ri kelgan [15; 113]. Ayniqsa, Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida vrach kadrlarga ehtiyoj nihoyatda yuqori bo‘lgan. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi mavjud 104 ta qishloq vrachlik uchastkasida 52 nafar vrach yetishmayotgan edi [16; 139].

XX asrning birinchi choragida Farg‘ona vodiysi shaharlarida shifoxonalar soni ham yetarli emas edi. Shu sababli yangi tibbiyot muassasalarini ochishga ehtiyoj sezildi. Biroq yangi tashkil etilgan shifoxonalarning holati ham ko‘ngildagidek emasdi. Ular ko‘pincha maxsus jihozlangan binolar o‘rniga, sobiq savdo muassasalari yoki boshqa moslashtirilgan joylarda faoliyat yuritardi. 1930-yillarning o‘rtalarigacha shaharlarda tibbiyot muassasalari qurilishi juda sust olib borildi. Asosan 1934–1939-yillar oralig‘ida yangi shifoxona binolari barpo etilgan.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan barcha sohalar, jumladan sog‘liqni saqlash tizimi ham harbiy ehtiyojlarga bo‘ysundirilgan. O‘zbekiston SSRda faoliyat yuritayotgan ko‘plab tibbiyot xodimlari frontga safarbar etilgan. Urush davrida O‘zbekistonga boshqa mintaqalardan ko‘plab shifoxonalar va tibbiyot xodimlari ko‘chirib keltirildi. Jumladan, 1941-yilda Farg‘ona viloyatida 16

ta [17; 97], Andijon viloyatida 5 ta [18; 9], Namangan viloyatida esa 19 ta harbiy gospital tashkil etilgan [16; 6].

Urush yillarida mamlakat bo'ylab sanitariya-epidemiologiya xizmatini tashkil qilish va uni samarali yo'lga qo'yish tobora murakkablashdi. Belgilangan profilaktik chora-tadbirlar qabul qilingan bo'lsa-da, aholi orasida yuqumli kasalliklar soni ortib bordi. Ayniqsa, zaxm (sifilis) kasalligi keng tarqaldi. Masalan, 1944-yilda Farg'ona shahrida 361 nafar, Qo'qon shahrida esa 354 nafar fuqaro zaxm bilan ro'yxatga olingan [19; 105].

1920–1950-yillarda Farg'ona vodiysi uchun sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi va rivojlanishining murakkab, ammo muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. Bu davrda aholining sanitariya madaniyati yetarlicha rivojlanmaganligi, moddiy va ma'naviy qoloqlik, tibbiyot muassasalari va malakali kadrlar yetishmovchiligi oqibatida yuqumli kasalliklar keng tarqalgan edi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida mavjud tibbiy infratuzilma zarur ehtiyojni qondira olmagan, mavjud shifoxonalar ko'pincha maxsus binolarda emas, balki vaqtinchalik moslashtirilgan joylarda faoliyat yuritgan.

Shu bilan birga, bu davr sog'liqni saqlash tizimining asta-sekin takomillashuvi bilan ham xarakterlanadi. 1930-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab yangi shifoxonalar qurilishi, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus komissiyalar tashkil etilishi va tibbiyot kadrlarini tayyorlash yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijobiy samara bera boshladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida sog'liqni saqlash sohasi harbiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan bo'lsa-da, tibbiy xizmatning ko'lami kengaytirildi, front va front ortida xizmat qiluvchi gospitalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Umuman olganda, 1920–1950-yillardagi tarixiy jarayonlar Farg'ona vodiysi sog'liqni saqlash tizimining zamonaviy asoslarini yaratishda muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Bu davr tajribalari, ayniqsa sog'liqni saqlashni tashkil etish, sanitariya-profilaktika tadbirlarini amalga oshirish va tibbiy kadrlar ta'minotini yo'lga qo'yish borasida bugungi kundagi tibbiyot tizimi uchun ham muhim tarixiy saboq bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Узбекистан за 15 лет. Статистический сборник. – Ташкент, 1939.

1. Набиев Ф.Х. Проблемы и противоречие социальной политики в Туркестане (1917–1924 гг). Дисс.... док. ист. наук. – Ташкент, 1995.

2. ФВДА, 221-фонд, 1-рўйхат, 277-иш, 22-варақ.

3. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент: Янги-нашр, 2015.

4. Алиев М.М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине // Советское здравоохранение. – Москва: Медицина, 1986. – №9. – С. 74.

5. Алиев М.М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине. – Фергана: Фергана, 1980.

6. ФВДА, 435-фонд, 1-рўйхат, 239-иш, 42-варақнинг орқаси.

7. ЎзР МДА, Р.40-фонд, 1-рўйхат, 457-иш, 38-варақ.

8. ЎзР МДА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 1130-иш, 380-варақ.

9. АВДА, 90-фонд, 1-рўйхат, 69-иш, 43-варақ.

10. ЎзР МДА, Р.25-фонд, 1-рўйхат, 1391-иш, 203-варақ.

11. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1924 йиллар). – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2015.

12. ЎзРМА. 837-фонд, 6-рўйхат, 378-иш, 2-варақ.

13. ЎзРМА. 837-фонд, 3-рўйхат, 490-иш, 113-варақ.

14. ЎзРМА. 837-фонд, 3-рўйхат, 490-иш, 113-варақ.

15. ЎзРМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 2502-иш, 139-варақ.

16. Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Янги нашр, 2015. – Б. 97.

17. Ходжаков А.Х. Здравоохранение Андижанской области в годы Великой Отечественной войны // Медицинский журнал Узбекистана, 1985. – №.5. – С. 9.

18. Хотира. Наманган вилояти. 1-китоб. – Тошкент, 1994.